



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> September, 2025

## **TIJORAT BANKLARIDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING AMALIYOTI**

Ergashev Farkod Baxtiyorovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

### **Annotatsiya**

Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va istiqbollari tahlil qilinib, uni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda zamonaviy boshqaruv va nazorat usullari — xalqaro audit standartlari, KPI ko'rsatkichlari hamda byudjetlashtirish mexanizmlari asosida auditorlik jarayonlari, hisob yuritish tizimlari va nazorat funksiyalarining rivojlanish tendensiyalari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** auditorlik faoliyati, rivojlanish bosqichlari, AT Xalq banki, xalqaro audit standartlari, KPI, byudjetlashtirish, raqamli boshqaruv, ichki audit, avtomatlashtirish.

### **Kirish**

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish jarayonida auditorlik faoliyati alohida ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, balki butun iqtisodiyotning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Auditorlik faoliyatidan samarali foydalanish natijasida korxonalar moliyaviy hisoboti shaffoflashib, ularning faoliyati ustidan nazorat tizimi kuchayadi va investorlar uchun ishonchli ma'lumotlar taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatining hajmi va ko'lamlari yildan-yilga kengayib bormoqda. Auditorlik xizmatlari tarkibida moliyaviy hisobot audit, ichki audit, tashqi audit, komplayens tekshiruvlari hamda maxsus konsalting xizmatlari ko'paygani sari ushu faoliyatni tashkil etish va boshqarish xarajatlari ham ortib bormoqda. Xizmat turlarining kengayishi natijasida operatsion va boshqaruv xarajatlarining oshishi auditorlik faoliyatining umumiyligi samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois auditorlik faoliyatining samaradorligini



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> September, 2025

baholashda – auditorlik xizmatlari rentabelligi, mijozlarga ko‘rsatilgan xizmatlarning sifat darjasи, auditorlik jarayonlari natijasida aniqlangan moliyaviy xatoliklarni bartaraf etish tezligi, shuningdek, ichki nazorat tizimining mustahkamligi kabi indikatorlarni turli faoliyat yo‘nalishlari kesimida chuqur tahlil qilish zarur.

## **Mavzuning dolzarbliги**

Tijorat banklarida auditorlik faoliyatini samarali tashkil etish va ularning sifatlari hisobini yuritish tizimi bank faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, auditorlik faoliyatining samaradorligini to‘g‘ri baholash, auditorlik jarayonlari tarkibi va tuzilmasini chuqur tahlil qilish orqali shaffoflikni oshirish, moliyaviy risklarni kamaytirish hamda bankning investitsion jozibadorligini kuchaytirish mumkin.

Mavzuning dolzarbliги shundaki, auditorlik faoliyatida zamonaviy uslublarni joriy etish orqali tijorat banklarida moliyaviy menejmentni takomillashtirish, strategik qarorlar qabul qilish jarayonini samarali tashkil etish hamda indikatorlarga asoslangan boshqaruв tizimini yaratish imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, mazkur tadqiqotning dolzarbliги uning milliy iqtisodiyot barqarorligi va bank-moliya tizimining uzluksiz rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosati hamda strategik maqsadlari bilan uzviy bog‘liqligida ham namoyon bo‘ladi. Auditorlik faoliyatini samarali tashkil etish, zamonaviy raqamlı texnologiyalarni joriy etish va hisob hamda nazorat mexanizmlarini xalqaro standartlarga moslashtirish nafaqat tijorat banklari faoliyatining shaffofligi va samaradorligini oshiradi, balki butun bank tizimining jahon moliya bozorida raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tijorat banklari faoliyatida auditorlik jarayonlarini samarali tashkil etish va ularni muntazam hamda tizimli nazorat qilish mexanizmlarining yetarlicha shakllanmaganligi bank resurslaridan oqilona foydalanish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va strategik maqsadlarga erishishda muhim to‘sinqilik qilmoqda. Amaldagi moliyaviy nazorat va hisobot tizimlari ko‘p hollarda auditorlik faoliyatining haqiqiy samaradorligini aniqlash, tekshiruvlarning sifat ko‘rsatkichlari hamda audit jarayonlarini optimallashtirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar baza



# E CONF SERIES



## International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> September, 2025

Auditorlik faoliyati — tijorat banklari faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, moliyaviy natijalar ishonchliligi, hisob-kitoblarning shaffofligi va operatsion jarayonlarning samaradorligi bilan bevosita bog‘liqdir. Auditorlik jarayonlari bilan bog‘liq xarajatlar tarkibiga auditorlik xizmatlari uchun to‘lovlari, tashqi ekspertlarni jalb qilish xarajatlari, ichki nazorat tizimini qo‘llab-quvvatlash, axborot texnologiyalarini joriy etish va yangilash bilan bog‘liq mablag‘lar, shuningdek, hisobotlarni tayyorlash va hujjat aylanishini ta’minalash xarajatlari kiradi.

Auditorlik tekshiruvlarining sifatli va to‘liq amalga oshirilishi nafaqat bankning moliyaviy barqarorligini ta’minalaydi, balki uning foydalilik ko‘rsatkichlarini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

### Xulosa va Taklif

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida, banki auditorlik faoliyatining rivojlanishi riskka asoslangan yondashuv va zamonaviy texnologiyalarga integratsiyalash orqali samaradorlikni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Auditorlik faoliyatining istiqbollari esa xalqaro standartlar (COSO, Basel, IIA) bilan uyg‘unlashgan holda nazorat samaradorligini yanada yuksaltirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda bank mijozlari va investorlar ishonchini oshirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekiston sharoitida auditorlik faoliyati nafaqat moliyaviy nazorat vositasi, balki banklarning intellektual kapitali, boshqaruvi salohiyati va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini belgilovchi muhim omil sifatida qaraladi. Auditorlik amaliyotining rivojlanishi iqtisodiy nazariya, moliyaviy menejment va bank ishi bo‘yicha klassik yondashuvlar bilan bir qatorda, zamonaviy raqamlashtirish jarayonlari va xalqaro standartlarga asoslanmoqda. Nazariy jihatdan, auditorlik faoliyatidan samarali foydalanish deganda, mavjud resurslarni zamonaviy audit metodologiyalari va raqamli texnologiyalar yordamida tahlil qilish, moliyaviy oqimlarni nazorat qilish, risklarni maqbul darajada boshqarish hamda shaffoflikni ta’minalash orqali bankning umumiy moliyaviy samaradorligini oshirish tushuniladi. Auditorlik faoliyatining samaradorligi quyidagi asosiy jihatlar orqali baholanadi:



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

**16<sup>th</sup> September, 2025**

- Auditorlik jarayonlari tuzilmasi – auditorlik faoliyatining asosiy bosqichlari, ularning bank tizimi barqarorligidagi o‘rni hamda ichki va tashqi audit xizmatlarining resurslar kesimidagi ulushi aniqlanadi.
- Auditorlik faoliyatining moliyaviy natijalarga ta’siri – audit jarayonida aniqlangan xatoliklarning bankning rentabelligi, aktivlar samaradorligi va ROA, ROE kabi moliyaviy ko‘rsatkichlarga ta’siri chuqur tahlil qilinadi.
- Auditorlikni boshqarish imkoniyatlari – auditorlik jarayonlarini optimallashtirish, audit xarajatlari va foydasi o‘rtasida muvozanatni ta’minlash, shuningdek, ichki va tashqi audit faoliyatini samarali integratsiya qilish imkoniyatlari ishlab chiqiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

- 1.2020 yil 12 maydag‘i O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-soni “2020-2025 yillarga muljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.
- 2.Abduraxmonov, Q. X. (2019). Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
- 3Azizov, U., & Karaliev, T., & Bobokulov, T. (2018). Bankovskoe delo: Uchebnoe posobie. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
- 4.Bessis, J. (2015). Risk Management in Banking (4th ed.). Chichester: Wiley.
- 5.Choudhry, M. (2022). The Principles of Banking (2nd ed.). Singapore: Wiley.
- 6.Fabozzi, F. J. (2010). Foundations of Financial Markets and Institutions (4th ed.). Boston: Pearson.
- 7.Greenbaum, S. I., Thakor, A. V., & Boot, A. (2019). Contemporary Financial Intermediation (4th ed.). Amsterdam: Elsevier.
- 8.Heffernan, S. (2005). Modern Banking (2nd ed.). Chichester: Wiley.
- Koch, T. W., & MacDonald, S. S. (2014). Bank Management (8th ed.). Mason: South-Western Cengage Learning.